

# Korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2018 yil 1 fevral holatiga

## RAQAMLAR:

- Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni **1533 taga o'sdi**.
- Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar ulushi 0,9 foizga kamaygan.
- Tugatilgan korxonalar nisbatan yangi tashkil etilgan korxonalar soni **244 taga oshgan**.

2018 yilning yanvar oyida Samarqand viloyatida 376 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 16 taga ko'pdir.


Shuningdek faoliyati tugatilgan korxonalar va tashkilotlarning soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan 88,5% ko'paygan hamda ularning soni 132 tani tashkil etganligini kuzatish mumkin.

Buning natijasida joriy yilning boshiga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 214 ta (1,0%) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 21275 tani tashkil etgan.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy ulushi Samarqand shahrida (32,2%), Urgut (9,3%), Pastdarg'om (7,4%) va Samarqand (6,6%) tumanlarida kuzatilmogda.

## Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), birlikda




## Ro'yxatdan o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi

(fermer va dehqon xo'liklaridan tashqari,  
2018 yilning 1 fevral holatiga)

|                    | Ro'yxatdan o'tgan |                   | Faoliyat ko'rsatayotgan |                   |
|--------------------|-------------------|-------------------|-------------------------|-------------------|
|                    | birlik            | jamiga nisbatan % | birlik                  | jamiga nisbatan % |
| Samarqand viloyati | 22742             | 100,0             | 21275                   | 100,0             |
| Samarqand sh.      | 7266              | 31,9              | 6847                    | 32,2              |
| Kattaqo'rg'on sh.  | 757               | 3,3               | 730                     | 3,4               |
| tumanlar           |                   |                   |                         |                   |
| Oqdaryo            | 855               | 3,8               | 802                     | 3,8               |
| Bulung'ur          | 861               | 3,8               | 795                     | 3,7               |
| Jomboy             | 720               | 3,2               | 665                     | 3,1               |
| Ishtixon           | 1108              | 4,9               | 1028                    | 4,8               |
| Kattaqo'rg'on      | 1060              | 4,7               | 989                     | 4,6               |
| Qo'shrabot         | 545               | 2,4               | 522                     | 2,5               |
| Narpay             | 868               | 3,8               | 826                     | 3,9               |
| Payariq            | 1207              | 5,3               | 1120                    | 5,3               |
| Pastdarg'om        | 1797              | 7,9               | 1570                    | 7,4               |
| Paxtachi           | 588               | 2,6               | 548                     | 2,6               |
| Samarqand          | 1531              | 6,7               | 1414                    | 6,6               |
| Nurobod            | 659               | 2,9               | 580                     | 2,7               |
| Urgut              | 2030              | 8,9               | 1984                    | 9,3               |
| Tayloq             | 890               | 3,9               | 855                     | 4,1               |

### Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat




Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko'rsatayotganlarning ulushi 93,5 % ni, shu bilan birga jami korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan faoliyat ko'rsatmayotganlarning ulushi 6,5 % ni tashkil etganligini ko'rsatmoqda va bu ko'rsatkich esa yil boshiga nisbatan taqqoslanganda 0,1 foizga o'sganini ko'rsatmoqda.

faoliyat ko'rsatayotganlar
  faoliyatsizlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 22,4 % savdoda, 17,8 % sanoatda, 8,1 % qurilishda, 7,0 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 5,8 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 3,3 % tashish va saqlash, 2,3 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 1,8 % axborot va aloqa va 31,5 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

**Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning  
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi,  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) % da**



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning shu davriga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining ulushi boshqa faoliyat turlarida (-1,8 f.p), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda (-1,5 f.p), savdoda (-0,5 f.p), kamayganligi, buning natijasida sanoatda (+1,8 f.p), qishloq va o'rmon xo'jaligida (+1,0 f.p), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda (+0,5 f.p.), tashish va saqlashda (+0,4 f.p.) hamda qurilish va axborot va aloqada (+0,1 f.p) ulushining o'sishiga olib keldi.


**Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning shu davriga nisbatan ulushi, foiz punktda**

| Iqtisodiy faoliyat turlari nomi                    | 01.02.2018 y. | 01.02.2017 y. | farqi (+-) |
|--|---------------|---------------|------------|
| Boshqa turlari                                     | 31,5          | 33,3          | -1,8       |
| Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish | 2,3           | 3,8           | -1,5       |
| Savdo  | 22,4          | 22,9          | -0,5       |
| Sanoat   | 17,8          | 16,0          | 1,8        |
| Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi                 | 7,0           | 6,0           | 1,0        |
| Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar          | 5,8           | 5,3           | 0,5        |
| Tashish va saqlash                                 | 3,3           | 3,0           | 0,4        |
| Qurilish   | 8,1           | 8,0           | 0,1        |
| Axborot va aloqa                                   | 1,8           | 1,7           | 0,1        |

**Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni**


2018 yil 1 fevral holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 283 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 37 taga yoki 15,0 % ga o'sgan.

**Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda**




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi Samarqand shahar 141 ta (49,8 %), Urgut 36 ta (12,7 %) va Jomboy tumanlarida 25 ta (8,8 %) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokida tashkil etilgan korxonalar Qo'shrabot 1 ta (0,3 %), Kattaqo'rg'on va Payariq 2 ta (0,7 %) hamda Paxtachi, Ishtixon va Narpay 3 ta (1,1%) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi. Bu esa mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.

### Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining hududlar kesimidagi soni, birlikda



Agar faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ushbu ma'lumotlarni 2018 yil 1 fevral holatiga ko'rsak eng ko'p sanoatda 192 ta (67,8 %), savdoda 35 ta (12,4 %), boshqa turlarida esa 18 ta (6,3 %) tashkil qilgan, eng kamlari esa axborot va aloqada 3 ta (1,1 %), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda hamda qurilishda 4 ta (1,4 %), tashish va saqlashda 5 ta (1,8 %), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 7 ta (2,5%) va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi 15 ta (5,3%) tashkil qilgan. Shundan ko'rinib turibdiki faoliyat yuritadigan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turiga to'g'ri kelarkan. Shuningdek eng kam ulushi esa axborot va aloqa, qurilish hamda sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish faoliyat turlariga to'g'ri keladi.


## Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



### Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni


2018 yil 1 fevral holatiga viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 16289 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2017 yil 1 fevral holatiga qaraganda 7,8 %ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi ya'ni 5673 tasi (34,8 %) Samarqand shahriga, 1579 tasi (9,6 %) Urgut, 1156 tasi (7,1 foizi) Samarqand hamda 1150 tasi (7,1 foizi) Pastdarg'om tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

### Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni dinamikasi, birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 16289 ta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 4738 tasi (29,1 %) - savdoda, 3751 tasi (23,0 %) - sanoatda, 1717 tasi (10,5 %) - qurilishda, 1444 tasi (8,9 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 1214 tasi (7,5 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida, 687 tasi (4,2%) - tashish va saqlashda, 382 tasi (2,3 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda, 374 tasi (2,3 %) - axborot va aloqa sohasida shuningdek 1982 tasi (12,2%) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi. Shundan ko'rinib turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.


### Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



2018 yil 1 fevral holati bilan 364 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 1,1 foizga ko'pdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Samarqand shahrida (101 ta), Samarqand (45 ta), Payariq (31 ta) va Pstdarg'om (26 ta) tumanlarida tashkil etilgan. Eng kam Paxtachi (7 ta), Qushrabot va Jomboy tumanlarida esa (8 ta) tashkil etilgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'p sanoatda (94 ta), savdoda (76 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (55 ta) va qurilishda (54 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa axborot va aloqada (2 ta), tashish va saqlashda (10 ta) va sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (18 ta) tashkil etilgan.


## Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi ulushi, % da



### Oilaviy korxonalar soni

Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2018 yilning 1 fevral holatiga 1673 tani tashkil etib, ulardan 1613 tasi yoki 96,4 % faoliyat yuritadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yxatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni **60,1%**ga oshganligini ta'kidlash lozim.


### Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda





Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda oilaviy korxonalarining 36,2 % yoki 584 tasi sanoat, 25,7 % yoki 414 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 15,9 % yoki 256 tasi savdo, 9,7 % yoki 156 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1,9 % yoki 30 tasi axborot va aloqa, 1,1 % yoki 17 tasi qurilish, 0,9 % yoki 14 tasi tashish va saqlash, 0,3 % yoki 5 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish hamda 8,5 % yoki 137 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

### Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



Samarqand viloyat statistika boshqarmasi  
Statistik registrarni yuritish bo'limi

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat  
registri (KTYDR) ma'lumotlari asosida  
tayyorlangan

Nashr uchun mas'ul: **F.Zulfuqorov**  
(0371) 230-85-42,43